



## Voqelik obyektini perifrastik sinonimlar orqali ifodalash

Kobilova Aziza Baxriddinovna

BuxDU Ingliz tilshunosligi kafedrasida katta o'qituvchisi Старший преподаватель кафедры  
английского языкознания Бухарского государственного университета

**Annotatsiya:** Zamonaviy tilshunoslikda voqelikni ifodalashda funksional-semantik sinonimlarning o'rni beqiyos. Ushbu maqolada perifrastik sinonimlarning shaxsni ifodalovchi funksional-semantik sinonimlar, o'rin-joyini ifodalovchi funksional-semantik sinonimlar hamda narsa-hodisani ifodalovchi funksional-semantik sinonimlar kabi turlari xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** perifrasta, perifrastik sinonimlar, funksional-semantik sinonimlar.

Inson so'z orqali narsa-hodisalarni, ularning belgisi, miqdori, holati va harakatini, hatto, harakatning belgisini ham nomlaganidek, so'zlar anglatgan denotatlarning ifodaviy nomlari – funksional-semantik sinonimlarni ham yaratgan. Aslida, sinonim so'zlar kishilarning so'z ma'nolarini har tomondan to'laroq, mukammalroq ochishga urinishi natijasida vujudga keladi. Masalaga ana shu nuqtai nazardan qaraganda, har qanday tilning lug'at tarkibidagi asosiy vositalardan birini sinonim so'z va iboralar tashkil etadi. Ma'lum bir voqelikni ifodalovchi birliklar, tushunchalar, shuningdek, munosabatlar sinonimiyani hosil qiladi.

Tilshunos olim H.Shamsiddinov voqelikni ifodalashda funksional-semantik sinonimlarning o'rni beqiyos ekanligini alohida ta'kidlaydi. Olim o'z tadqiqotlarida so'zlarning so'z, juft so'z, uyushiq bo'lak, o'xshatish, sodda gap, qo'shma gap, perifrastik hamda elliptik funksional-semantik sinonimlari xususida ham batafsil so'z yuritadi. Perifrastik sinonimlar shaxsni ifodalovchi funksional-semantik sinonimlar, o'rin-joyini ifodalovchi funksional-semantik sinonimlar hamda narsa-hodisani ifodalovchi funksional-semantik sinonimlar kabi turlarga ajratiladi. Tabiiyki, tibbiy perifrastiklarda ham yuqoridagi tasnif amal qiladi:

1. Shaxsni ifodalaydigan tibbiy perifrastik funksional-semantik sinonimlar: “Barkamol avlod – 2014” sport musobaqalarida namanganlik saloatlik posbonlari – shifokorlar zimmasiga musobaqa ishtirokchilarining sog'lig'ini muhofaza etish vazifasi yuklatilgan.

Ingliz tilida: Hippocrates is considered to be **the father of modern medicine** because of his books, which are more than 70 (“National Library of Medicine”, 2008, 11(1)). Ya'ni, ushbu gapda Gippokrat “zamonaviy maditsina otasi” sifatida perifrastiklashtirilgan.

2. O'rin-joy ifodalaydigan tibbiy perifrastik funksional-semantik sinonimlar: *Zomin sanatoriyasi – tog' yon bag'ridagi sihatgoh* (zominsan.uz).

Ingliz tilida: *The Healthcare Resort* is meeting the needs of guests who want a luxury experience with rehabilitative and long-term care. **The world-class resort** offers a combination of short-term rehabilitation, where the average length of stay is 10 to 14 days (thehealthcareresort.com). Tarjimasi: “The Healthcare Resort” sanatoriyasi reabilitatsiya va uzoq muddatli parivarishning yuqori sifatda bo'lishini istovchi mijozlarning xohishiga to'la javob beradi. Dunyo standartlariga mos sanatoriya 10-14 kunlik qisqa muddatli reabilitatsiya kurslarini taklif qiladi. Ushbu gapda *The Healthcare Resort* sanatoriyasi **the world-class resort**, ya'ni dunyo standartiga mos sanatoriya sifatida perifrastiklashtirilgan.

3. Narsa-hodisani ifodalaydigan tibbiy perifrastik funksional-semantik sinonimlar: *Oshqovoq – sariq oltin. Qovoq moyi – shifoning koni* (“Shifo-info” gazetasi, 2016. 44-son). Shifokor ko'rigi – davoning ilk qadami. Salomatlik – tabiat in'om etgan bebaho boylik. Aniqlik tashxis – samarali davolash.



kabi. Yoki ingliz tilida: *Twentieth-century people are well aware that lemon is a thermometer of human blood pressure* (hopkinsmedicine.org). Tarjiması: *XX asr kishilari limon – inson qon bosimini termometri ekanligini yaxshi bilishadi.*

Qiyoslanayotgan tillar kesimida perifrastik sinonimlarni izohlash, so'zlarning semantik yaqinligini aniqlash, so'zlarning ma'nolarini izohli lug'atlarda tahlil etish

tilshunosligimizdagi eng muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Perifraza lingvomadaniy hodisa sifatida alohida qiziqish uyg'otmoqda, chunki so'nggi paytlarda perifrazalarning shakllanish jarayoni tobora kuchayib bormoqda va ular nutq faoliyatining turli sohalarida keng tarqalmoqda. Perifrazalarni turli tillar kesimida tadqiq etish dunyoning milliy o'ziga xosligi hamda ingliz va o'zbek tillarida so'zlashuvchilarning nutq boyligini o'rganishga imkon beradi.

Bir tildan ikkinchi tilga tarjima jarayonida asl matnning ma'nosini aniq yetkazib berish maqsadida uning ekvivalentini, ma'nodoshini topish asosiy mezon hisoblanadi, ayniqsa, tarkibida perifraza qo'llangan matn bo'lsa. Perifraza hodisasi dunyoning barcha tillarida uchraydi. Ammo bitta tilda qo'llanilgan perifraza boshqa tilda uchramasligi mumkin, yoki u biror bir sohaga tegishli bo'lsa, boshqa tilda bu soha topilmasligi mumkin. Asl va qiyoslanadigan tilning leksik tarkibidagi farqlar hamda madaniy farqlar tufayli tillarda mavjud bo'lgan perifrastik atamalarni qiyoslash esa unchalik oson ish emas. Ba'zan tarjimon perifrastik funktsiyani chuqur tushunmaganligi sababli o'zi anglamagan holda yaratgan sinonimi orqali kerakli ma'noni yetkazib bera olmasligi mumkin va ehtimol, hatto matnga salbiy ma'no kiritishi ham mumkin. Masalan, "Disability" (nogironlik) asosiy ma'nosi – bu "an illness, injury, or condition that makes it difficult for someone to do the things that other people do" (Cambridge dictionary), ya'ni boshqa odamlar qila oladigan ishlarni kimningdir bajarishini qiyinlashtiradigan kasallik, jarohat yoki holat. Ushbu Cambridge lug'atida "disability" сўзи "a limiting mental or physical condition" ya'ni boshqa odamlar qila oladigan ishlarni kimningdir bajarishini qiyinlashtiradigan kasallik, jarohat yoki holat. Ushbu invalid va handicapped person (nogiron inson) iborasining o'rniga ishlatilmoqda.

Xullas, so'zlarning perifrastik funktsional-semantik sinonimlari o'z nomiga ega bo'lgan denotatni qayta nomlaydi. Ularning boshqa funktsional-semantik sinonimlardan farqi shundaki, ular ma'lum bir shaxs, narsa-hodisa, o'rin-joyning belgisini emas, balki aynan o'zini ifodalaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Шамсиддинов Х. Сўзлар функционал-семантик синонимларининг шаклий ва маъновий табиати. Ўқув қўлланма. – Т.: Университет, 2008. – Б.91.
2. Kobilova A.B. Periphrasis – as a stylistic device. Proceedings of Global Technovation 2<sup>nd</sup> International Multidisciplinary Scientific Conference. Hosted from London, U.K., December, 28<sup>th</sup> 2020. – Page: 215-216. <https://conferencepublication.com>
3. Kobilova A.B. Peryphrases used in medical texts and their characteristics (on the example of english and uzbek languages). Proceedings of Global Technovation 4th International Multidisciplinary Scientific Conference Hosted from Paris, February 27th 2021 France. – Page: 255-257. <https://conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/740>
4. Kobilova A.B. Some considerations about periphrases. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021. Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492. – Page: 1637-1640. <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=2&article=264>



5. Kobilova A.B. Features of the use of the periphrases of the Uzbek and English languages in journalistic texts. *International Journal of Psychological Rehabilitation*, Vol.24, Issue 07, 2020. Pages: 8162-8168. <https://www.psychosocial.com/article/PR270794/18979/>
6. Saidova, Mukhayyo Umedilloevna (2020) "LEXICOGRAPHIC AND ETHYMOLOGICAL ANALYSIS OF THE CONCISE OXFORD DICTIONARY OF LITERARY TERMS BY Ch. BALDICK," *Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 2 : Iss. 9* , Article 45. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol2/iss9/45>
7. Umedilloevna, S. M. (2020). The problem of classification of literary terms in “the concise oxford dictionary of literary terms” by chris baldick. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(6), 527-531. <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=10&issue=6&article=07>
8. Расулов, З. И. (2011). Синтаксический эллипсис как проявление экономии языка): автореферат дисс.. кандидата филологических наук/Расулов Зубайдулло Изомович.- Самарканд, 2011.-27 с. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=BMFYyzIAAAAJ&citation\\_for\\_view=BMFYyzIAAAAJ:UeHWp8X0CEIC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=BMFYyzIAAAAJ&citation_for_view=BMFYyzIAAAAJ:UeHWp8X0CEIC)
9. Расулов, З. И. (2017). Особенности моделирования эллиптических предложений в связи с позиционными звеньями. Тил бирликларини қиёсий-типологик ва лингвомаданиятшунослик йўналишларида тадқиқи ва уларнинг тилларни ўқитишдаги ўрни. Илмий мақолалар тўплами. Қ, 2, 54-56. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=BMFYyzIAAAAJ&citation\\_for\\_view=BMFYyzIAAAAJ:YsMSGLbcyi4C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=BMFYyzIAAAAJ&citation_for_view=BMFYyzIAAAAJ:YsMSGLbcyi4C)